OFERTA

Ommaviy oferta

Tahrir 4.0 · 09.10.2026

«Qonun AI» platformasidan foydalanish va «Advokatlar» bo'limi xizmatlari to'g'risidagi shartnoma

«ADL TECH» mas'uliyati cheklangan jamiyati (STIR 313328699, manzil: Xorazm viloyati, Bog'ot tumani, «Oq Oltin» MFY, Istiqlol 1-tor ko'chasi, 57-uy; bundan buyon — «Ijrochi») O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq ushbu shartnomani (bundan buyon — «Oferta») ommaviy oferta sifatida e'lon qiladi va uni to'liq va so'zsiz qabul qilishga qodir bo'lgan har qanday jismoniy shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor, yuridik shaxs va advokatga (bundan buyon — «Foydalanuvchi») quyidagi shartlarda shartnoma tuzishni taklif qiladi.

Ijrochi va Foydalanuvchi birgalikda «Tomonlar», alohida esa «Tomon» deb yuritiladi. Ushbu Oferta, Foydalanish shartlari (qonun.ai/shartlar) va Maxfiylik siyosati (qonun.ai/maxfiylik) yagona majburiy hujjatlar to'plamini tashkil etadi. Pullik xizmatlar bo'yicha ular o'rtasida ziddiyat bo'lsa, ushbu Oferta ustuvor hisoblanadi.

Bandlar

1. Atamalar
2. Ofertani qabul qilish (aksept)
3. Shartnoma predmeti
4. Platforma imkoniyatlari
5. Xizmat xususiyati va javobgarlikni cheklash
6. Tariflar, to'lov va limitlar
7. Pulni qaytarish
8. Foydalanuvchining huquq va majburiyatlari
9. Ijrochining huquq va majburiyatlari
10. Fuqarolar uchun maxsus shartlar
11. Kompaniyalar uchun maxsus shartlar
12. «Advokatlar» bo'limi: Mutaxassislar uchun shartlar
13. «Advokatlar» bo'limi: Platforma, Mijoz va Mutaxassis munosabatlari
14. Fors-major
15. Nizolarni hal qilish va xabarlar
16. Amal qilish muddati, o'zgartirish va yakuniy qoidalar
17. Ijrochi rekvizitlari

    1-ilova. Tariflar

    2-ilova. Restart qoidalari

1. Atamalar

1.1. **Platforma, «Qonun AI»** — O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha ma'lumot qidirish, savollarga javob olish, hujjat loyihalarini shakllantirish va hujjatlarni tahlil qilish imkonini beruvchi, sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan dasturiy ta'minot majmuasi.

1.2. **Platformaga kirish kanallari** — qonun.ai veb-sayti va uning kichik domenlari, Telegram-bot, Telegram Mini App hamda iOS va Android mobil ilovalari. Barcha kanallarda ushbu Oferta bir xilda

amal qiladi.

1.3. **Foydalanuvchi toifalari:** Fuqaro — jismoniy shaxs; Kompaniya — yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor; Mutaxassis — Platformaning «Advokatlar» bo'limida profil yurituvchi Advokat (amaldagi advokatlik litsenziyasiga ega shaxs yoki advokatlik tuzilmasi) yoki Yurist (oliy yuridik ma'lumotga ega, advokat maqomiga ega bo'lmagan shaxs).

1.4. **Tarif** — qonun.ai/tariflar sahifasida e'lon qilingan xizmatlar to'plami, uning narxi, limitlari va amal qilish muddati (1-ilova).

1.5. **Limit** — Tarif doirasida hisob davrida foydalanish mumkin bo'lgan savollar, hujjatlar, auditlar, video tahlil daqiqalari, jonli maslahatlar, mijoz so'rovlari va boshqa birliklar soni.

1.6. **Hisob davri** — obuna to'langan kundan boshlab bir kalendar oy (yoki to'langan bir necha oy).

1.7. **Restart** — oylik limit tugaganda Tarif limitlarini 50% yoki 100% hajmda qayta tiklash xizmati (2-ilova).

1.8. **AI javobi** — Platforma tomonidan sun'iy intellekt yordamida avtomatik yaratilgan matn, hujjat loyihasi, tahlil, muddat hisob-kitobi yoki tavsiya.

1.9. **«Advokatlar» bo'limi (Marketplace)** — Fuqaro va Kompaniyalarga Mutaxassislarni topish, ularga so'rov yuborish va baho qoldirish imkonini beruvchi bo'lim (qonun.ai/advokatlar). Mijoz — ushbu bo'lim orqali Mutaxassisga murojaat qilgan Fuqaro yoki Kompaniya.

2. Ofertani qabul qilish (aksept)

2.1. Quyidagi harakatlardan har biri Ofertaning to'liq va so'zsiz qabul qilinishi hisoblanadi: Platformada ro'yxatdan o'tish yoki avtorizatsiyadan o'tish; «Roziman» belgisini qo'yish; Tarif, Restart yoki bir martalik xizmat uchun to'lov qilish; Platformadan amalda foydalanishni boshlash.

2.2. Aksept qilish orqali Foydalanuvchi: Ofertani o'qib chiqqanini va tushunganini; 18 yoshga to'lgani va to'liq muomala layoqatiga ega ekanini; Kompaniya nomidan harakat qilsa, tegishli vakolatga ega ekanini; 5-bo'limdagi xizmat xususiyati va javobgarlik cheklovlariga rozi ekanini tasdiqlaydi.

2.3. Kompaniya bilan bank o'tkazmasi orqali hisob-kitob qilinganda Tomonlar qo'shimcha yozma shartnoma imzolashi mumkin. Unda nazarda tutilmagan masalalar ushbu Oferta bilan tartibga solinadi.

3. Shartnoma predmeti

3.1. Ijrochi Foydalanuvchiga tanlangan Tarif doirasida Platformadan foydalanish huquqini (dasturiy ta'minotdan foydalanish huquqini taqdim etish xizmatini) beradi, Foydalanuvchi esa ushbu xizmat uchun belgilangan haqni to'laydi. Bepul Tarif va bepul hamkorlik dasturlari bo'yicha xizmat haq olinmasdan, Ofertadagi cheklovlar bilan ko'rsatiladi.

3.2. Beriladigan huquq noeksklyuziv, boshqa shaxsga o'tkazilmaydigan va Ofertada nazarda tutilgan hollarda qaytarib olinishi mumkin bo'lgan huquq hisoblanadi.

3.3. Platformaga bo'lgan barcha mutlaq huquqlar — dastlabki kod, dizayn, interfeys, «Qonun AI» nomi va logotipi, hujjat shablonlari, ma'lumotlar bazalari va ularning tuzilmasi — Ijrochiga tegishli. Foydalanuvchiga intellektual mulk huquqlari o'tmaydi.

3.4. Foydalanuvchi Platformani dekompilyatsiya qilish, nusxalash, dastlabki kodini tiklash, uning asosida raqobatdosh mahsulot yaratish, javoblar va shablonlar bazasini avtomatlashtirilgan vositalar bilan yig'ib olish (parsing, scraping) huquqiga ega emas. Ushbu taqiqni buzgan shaxs O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'rsatilgan tartibda javobgarlikka tortiladi va Ijrochiga yetkazilgan

zararni to'liq qoplaydi.

3.5. Foydalanuvchi Platformaga kiritgan ma'lumotlar (savollar, hujjatlar, fayllar) unga tegishli bo'lib qoladi. Foydalanuvchi uchun yaratilgan hujjat loyihalaridan u o'z shaxsiy yoki xo'jalik ehtiyojlari uchun erkin foydalanadi; ularni shablon-mahsulot sifatida uchinchi shaxslarga sotish taqiqlanadi.

3.6. Ijrochi Platformani yangilash, funksiyalarni qo'shish, o'zgartirish yoki o'chirish, texnik profilaktika o'tkazish huquqiga ega. Rejalashtirilgan uzoq muddatli ishlar haqida Foydalanuvchilar Platforma yoki rasmiy Telegram kanali orqali xabardor qilinadi.

4. Platforma imkoniyatlari

4.1. Tanlangan Tarifga qarab Foydalanuvchiga quyidagilar taqdim etilishi mumkin: qonunchilik bo'yicha savol-javob (matnli, ovozli, rasm orqali); hujjat konstruktori; hujjat va shartnomalarni tahlil qilish (audit); video tahlil; huquqiy muddatlar hisob-kitobi va eslatmalar; eng yaqin sud, notarius va boshqa organlar haqida ma'lumot; jonli yurist bilan maslahat; «Advokatlar» bo'limi va Platformada e'lon qilingan boshqa funksiyalar.

4.2. Har bir AI javobida, imkon qadar, tegishli normativ-huquqiy hujjat, modda (band) va rasmiy manbaga (Lex.uz) havola ko'rsatiladi. Bu Foydalanuvchiga ma'lumotni mustaqil tekshirish imkonini berish uchun qilinadi.

4.3. Modullar tarkibi, AI modellari, provayderlar va texnologik yechimlar Ijrochi tomonidan mustaqil belgilanadi, almashtirilishi mumkin va tijorat siri hisoblanadi. «Tez orada» yoki «beta» deb belgilangan funksiyalar ishga tushirilguniga qadar sotilmaydi yoki sinov rejimida taqdim etiladi.

5. Xizmat xususiyati va javobgarlikni cheklash

> Ushbu bo'lim Ofertaning ajralmas va eng muhim qismi hisoblanadi. Platformadan foydalanish ushbu bo'limga so'zsiz rozilikni anglatadi.

5.1. **Ijrochi advokatlik tuzilmasi emas.** Ijrochi «Advokatura to'g'risida»gi qonunchilik ma'nosida advokatlik faoliyatini amalga oshirmaydi, yuridik yordam ko'rsatmaydi, sudda va boshqa organlarda vakillik qilmaydi. Ijrochi faoliyati axborot-texnologik xizmat ko'rsatishdan iborat.

5.2. **Platforma javoblari tavsiyaviy xususiyatga ega.** Platforma tavsiyaviy va yo'naltiruvchi xarakterdagi axborot vositasi hisoblanadi. AI javoblari, tahlillar, hujjat loyihalari, modda havolalari va muddat hisob-kitoblari rasmiy yuridik xulosa, advokat maslahati, sud qarori yoki davlat organining rasmiy tushuntirishi hisoblanmaydi, yuridik majburiy kuchga ega emas va Foydalanuvchi uchun yuridik oqibatlar keltirib chiqarishga yagona asos bo'la olmaydi.

5.3. **Qaror va javobgarlik — Foydalanuvchida.** AI javobi asosida qaror qabul qilish, unga qarab harakat qilish va uning oqibatlari uchun javobgarlik to'liq Foydalanuvchining zimmasida bo'ladi. Foydalanuvchi har bir javobda ko'rsatilgan qonun, modda va Lex.uz havolasi orqali ma'lumotni mustaqil tekshirishi, o'rganishi va zarur hollarda advokat bilan maslahatlashgan holda qaror qabul qilishi shart. Platformada amalga oshirilgan har bir harakat uchun uni amalga oshirgan shaxs individual javobgar hisoblanadi.

5.4. **Sun'iy intellekt cheklovlari.** Foydalanuvchi quyidagilarni tan oladi: Platforma ehtimoliy (statistik) tamoyilda ishlovchi texnologiyalardan foydalanadi; javoblarda noaniqlik, xato, to'liqsizlik, eskirgan yoki amaldagi qonunchilikka mos kelmaydigan ma'lumot bo'lishi mumkin; javob aniqligi Foydalanuvchi bergan ma'lumotlarning to'liqligi va to'g'riligiga bog'liq; ovozni matnga o'girishda xatolar bo'lishi mumkin.

5.5. **Xato ma'lumot uchun javobgarlik.** Texnik nosozlik, qonunchilikdagi o'zgarishlar Platforma bazasida hali aks etmagan holatlar, uchinchi shaxs xizmatlaridagi uzilishlar, fors-major va boshqa favqulodda holatlar natijasida berilgan noaniq yoki xato ma'lumot uchun Ijrochi javobgar bo'lmaydi.

5.6. **Hujjat loyihalari, audit va muddatlar.** Hujjat konstruktori yaratgan hujjatlar namuna (loyiha) hisoblanadi; ularning davlat organlari, sud yoki kontragentlar tomonidan qabul qilinishi kafolatlanmaydi. Audit hujjatdagi barcha xavflarni aniqlashni kafolatlamaydi. Muddat hisoblagichi va eslatmalar yordamchi xizmat bo'lib, protsessual va boshqa muddatlarni kuzatish majburiyati Foydalanuvchida qoladi; eslatmaning kelmasligi yoki kechikishi oqibatlari uchun Ijrochi javobgar emas.

5.7. Platforma «qanday bo'lsa, shundayligicha» va «mavjud bo'lganicha» taqdim etiladi. Ijrochi Platformaning uzluksiz va xatosiz ishlashini, muayyan natijaga erishilishini, sudda yutishni yoki biror organ ijobiy qaror qabul qilishini kafolatlamaydi.

5.8. **Javobgarlik chegarasi.** Ijrochi boy berilgan foyda, bilvosita, tasodifiy yoki keyingi zararlar, ma'naviy zarar, ishchanlik obro'siga yetkazilgan zarar, yo'qotilgan imkoniyatlar, sud ishlari natijalari va o'tkazib yuborilgan muddatlar oqibatlari uchun javob bermaydi. Har qanday holatda Ijrochining Foydalanuvchi oldidagi jami javobgarligi zarar yuzaga kelgan hisob davri uchun Foydalanuvchi Ijrochiga haqiqatda to'lagan summa bilan cheklanadi. Bepul xizmatlar bo'yicha Ijrochi qonunchilikda yo'l qo'yilgan maksimal darajada javobgar emas.

5.9. Ushbu bo'lim qoidalari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida yo'l qo'yilgan maksimal darajada qo'llaniladi, qonunning imperativ normalari bilan cheklanishi mumkin bo'lmagan hollar bundan mustasno, va Oferta bekor qilinganidan keyin ham o'z kuchini saqlaydi.

6. Tariflar, to'lov va limitlar

6.1. Platforma uch bo'lim bo'yicha Tariflar asosida xizmat ko'rsatadi: Fuqarolar (Bepul, Pro, Plus, Premium, Oila), Advokatlar (Start, Standart, Pro, Byuro, Hay'at) va Kompaniyalar (Start, Biznes, Kompaniya, Korporativ, Enterprise). Narxlar va limitlar 1-ilovada va qonun.ai/tariflar sahifasida e'lon qilinadi.

6.2. Narxlar o'zbek so'mida belgilanadi. Ijrochi aylanmadan olinadigan soliq to'lovchisi bo'lib, QQS to'lovchisi hisoblanmaydi. Xizmatning IKPU kodi: 10305008003000000.

6.3. To'lov 100% oldindan, O'zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi to'lov tizimlari (Payme, Click, Octo va Platformada ko'rsatilgan boshqalar) orqali, Kompaniyalar uchun esa hisob-faktura asosida bank o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi. Ijrochi bank kartasi rekvizitlarini so'ramaydi, qabul qilmaydi va saqlamaydi.

6.4. To'lov mablag' Ijrochi hisobvarag'iga tushgan yoki to'lov tizimi tomonidan tasdiqlangan paytda amalga oshirilgan hisoblanadi. Tarif, qoida tariqasida, darhol, lekin 24 soatdan kechiktirmay faollashtiriladi.

6.5. **Avtomatik uzaytirish.** Foydalanuvchi kartani obunaga bog'lagan bo'lsa, har hisob davri oxirida obuna narxining kartadan avtomatik yechib olinishiga rozilik beradi. Yechib olish sanasi va summasi Shaxsiy kabinetda ko'rsatiladi. Foydalanuvchi obunani istalgan vaqtda bekor qilishi mumkin; bekor qilish keyingi hisob davridan kuchga kiradi.

6.6. **Chegirmalar.** 3, 6 va 12 oylik obunalar uchun mos ravishda 10%, 15% va 20% chegirma beriladi. To'langan davr ichida narx o'zgarmaydi; keyingi davr uchun to'lov kunidagi amaldagi narx qo'llanadi (narx muzlatilmaydi).

6.7. **Limitlar.** Limitlar har hisob davri boshida yangilanadi; foydalanilmagan limitlar keyingi davrga o'tmaydi va pulga aylantirilmaydi. Bir kunda oylik limitning 10% idan ko'p foydalanilmaydi. Har bir rasm va ovozli xabar bitta savol hisoblanadi. Qisqa vaqt ichida ketma-ket yuborilgan xabarlar bitta

savol hisoblanadi; AI javobidan keyin yuborilgan har bir qo'shimcha xabar alohida savol hisoblanadi.

6.8. Oylik limit tugaganda Foydalanuvchi Restart (2-ilova), bir martalik xizmatlar yoki yuqori Tarifni sotib olishi mumkin. Yuqori Tarifga istalgan vaqtda o'tish mumkin, bunda farq qayta hisoblanadi; quyi Tarifga o'tish keyingi hisob davridan amalga oshiriladi.

6.9. Ijrochi Tarif narxlari, limitlari va tarkibini bir tomonlama o'zgartirishga haqli. Narx o'zgarishi Platformada e'lon qilingandan 7 kalendar kun o'tgach kuchga kiradi va allaqachon to'langan davrga ta'sir qilmaydi.

7. Pulni qaytarish

7.1. Texnik xato tufayli ikki marta yechilgan to'lov yoki Ijrochi aybi bilan umuman ko'rsatilmagan xizmat uchun to'lov Foydalanuvchi murojaatidan keyin 10 bank kunigacha to'lov qilingan kartaga to'liq qaytariladi.

7.2. Obunaning foydalanilgan davri, foydalanilgan limitlar, ko'rsatilgan bir martalik xizmatlar va faollashtirilgan Restart uchun to'lov qaytarilmaydi. Obunaning foydalanilmagan to'liq oylari uchun qaytarish Foydalanuvchi murojaati asosida, chegirmasiz narx bo'yicha qayta hisoblangan foydalanilgan davr qiymati chegirilgan holda amalga oshiriladi.

7.3. Xizmat to'liq ko'rsatilgan bo'lsa, AI javobi mazmunidan yoki ish natijasidan sub'ektiv norozilik pulni qaytarish uchun asos bo'lmaydi.

7.4. Foydalanuvchi Oferta yoki Foydalanish shartlarini buzgani uchun hisobi bloklangan hollarda to'langan summa qaytarilmaydi.

7.5. Ushbu bo'lim «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunda Fuqaroga kafolatlangan huquqlarni cheklamaydi. Qaytarish to'g'risidagi murojaat 15-bo'limdagi manzillarga to'lovni tasdiqlovchi ma'lumotlar bilan yuboriladi.

8. Foydalanuvchining huquq va majburiyatlari

8.1. Foydalanuvchi haqli: Tarif doirasida Platformadan foydalanishga; qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilishga; obunani uzaytirmaslik va hisobini o'chirishga; o'z ma'lumotlari bo'yicha Maxfiylik siyosatida belgilangan huquqlardan foydalanishga; ushbu Ofertada nazarda tutilgan hollarda pulni qaytarishni talab qilishga.

8.2. Foydalanuvchi majbur: ro'yxatdan o'tishda ishonchli ma'lumot berish va uni dolzarb saqlash; hisobga kirish ma'lumotlarini sir saqlash (hisob orqali qilingan barcha harakatlar Foydalanuvchining harakati hisoblanadi); Platformadan faqat qonuniy maqsadlarda foydalanish; AI javoblarini qaror qabul qilishdan oldin mustaqil tekshirish; uchinchi shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini faqat qonuniy asosda yuklash; Platforma ishiga zarar yetkazmaslik va limitlarni chetlab o'tishga urinmaslik; bitta hisobdan Tarifda nazarda tutilmagan tarzda bir nechta shaxs foydalanishiga yo'l qo'ymaslik.

8.3. Foydalanuvchi o'zi yuklagan hujjatlar va ma'lumotlarning mazmuni, ularni yuklashga huquqi borligi hamda davlat siri, tijorat siri yoki oshkor etilishi taqiqlangan ma'lumotlarni kiritish oqibatlari uchun mustaqil javob beradi.

8.4. Foydalanuvchi Ofertani buzishi natijasida Ijrochiga yoki uchinchi shaxslarga yetkazilgan zararni, shu jumladan uchinchi shaxslarning Ijrochiga qo'ygan talablari bo'yicha xarajatlarni to'liq qoplaydi.

9. Ijrochining huquq va majburiyatlari

9.1. Ijrochi majbur: to'lov tasdiqlangach Tarifni faollashtirish; Foydalanuvchi ma'lumotlarini qonunchilik va Maxfiylik siyosatiga muvofiq himoya qilish; Platformadagi uzilishlarni imkon qadar qisqa muddatda bartaraf etish; qo'llab-quvvatlash xizmati orqali murojaatlarga ish vaqtida, qoida tariqasida, 24 soat ichida javob berish; 7-bo'limda nazarda tutilgan hollarda pulni qaytarish.

9.2. Ijrochi haqli: Platformani takomillashtirish, funksiyalarni o'zgartirish, qo'shish yoki olib tashlash; texnik ishlar uchun Platforma ishini vaqtincha to'xtatish; AI modellari, provayderlar va ma'lumot manbalarini tanlash va almashtirish; Foydalanuvchi so'rovlarini xizmat sifatini nazorat qilish va nosozliklarni bartaraf etish maqsadida ko'rib chiqish; ushbu Oferta, Foydalanish shartlari va qonunchilikni buzgan Foydalanuvchining hisobini ogohlantirishsiz cheklash, to'xtatish yoki bloklash; Ofertani bir tomonlama o'zgartirish (16.2-band).

9.3. Ijrochida Foydalanuvchi shartlarni buzayotgani to'g'risida asosli taxmin paydo bo'lsa, Ijrochi vaziyat aniqlanguncha kirishni to'xtatib turishga va tushuntirish so'rashga haqli; Foydalanuvchi 3 ish kuni ichida javob beradi.

9.4. **Ijrochi xodimlari.** Ijrochining xodimlari va jalb qilingan pudratchilari Foydalanuvchi ma'lumotlariga faqat o'z vazifalarini bajarish uchun zarur hajmda kira oladi va maxfiylik majburiyatini olgan. Platforma yuristlari yoki operatorlari javoblarni sifat nazorati maqsadida ko'rib chiqishi advokatlik yordami hisoblanmaydi.

10. Fuqarolar uchun maxsus shartlar

10.1. Fuqaro Fuqarolar bo'limi Tariflari bo'yicha xizmatdan foydalanadi. Premium va Oila Tariflarida bir nechta hisob faqat Tarifda ko'rsatilgan sondagi shaxslarga beriladi.

10.2. Jonli yurist bilan maslahat (Tarif limiti yoki bir martalik xizmat) Ijrochi jalb qilgan yuristlar tomonidan o'tkaziladi, axborot-maslahat xarakteriga ega va sudda vakillik hamda advokatlik yordamini o'z ichiga olmaydi. Maslahatni 24 soatdan kechiktirmay bekor qilganda limit qaytariladi; kechroq bekor qilinganda yoki kelinmaganda maslahat o'tkazilgan hisoblanadi.

11. Kompaniyalar uchun maxsus shartlar

11.1. Kompaniya Kompaniyalar bo'limi Tariflari bo'yicha xizmatdan foydalanadi. Hisoblar Tarifda ko'rsatilgan sondagi xodimlarga beriladi; limitlar Kompaniya hisobida umumiy hisoblanadi.

11.2. Kompaniya administratori xodimlarni qo'shish, chiqarish va ularning huquqlarini belgilash uchun javobgar. Kompaniya xodimlarining Platformadagi harakatlari Kompaniyaning harakatlari hisoblanadi.

11.3. Bank o'tkazmasi orqali to'lovda Ijrochi hisob davri yakunida bajarilgan ishlar dalolatnomasini taqdim etadi. Kompaniya 5 ish kuni ichida asoslangan yozma e'tiroz bildirmasa, xizmatlar to'liq hajmda va lozim sifatda ko'rsatilgan hisoblanadi.

11.4. Kompaniya Platformaga tijorat siri hisoblangan ma'lumotlarni yuklash zarurligini mustaqil baholaydi. API kalitlari (Enterprise Tarifi) xavfsizligi uchun Kompaniya javob beradi; kalit orqali yuborilgan barcha so'rovlar Kompaniya so'rovlari hisoblanadi.

12. «Advokatlar» bo'limi: Mutaxassislar uchun shartlar

12.1. Mutaxassis Advokatlar bo'limi Tariflari (Start, Standart, Pro, Byuro, Hay'at) yoki bepul hamkorlik dasturi bo'yicha profil yuritadi, Mijoz so'rovlarini oladi va AI vositalaridan foydalanadi. Yuristlar Start va Standart Tariflaridan foydalanishi mumkin; Pro, Byuro va Hay'at Tariflari faqat Advokatlar uchun.

12.2. **Obuna haqi.** Ijrochi Mutaxassisga oylik obuna asosida xizmat ko'rsatadi: Platformada profil joylashtirish va ko'rsatish, Mijoz so'rovlarini yetkazish, AI yordamchi va boshqa dasturiy vositalar. Obuna haqi ushbu axborot-texnologik xizmatlar hamda Platformani yuritish (server, infratuzilma va boshqa xarajatlar) uchun qat'iy haq hisoblanadi va Mutaxassis olgan Mijozlar soni yoki gonorar summasiga bog'liq emas. Ijrochi qo'shimcha xizmatlar (profilni ustuvor ko'rsatish va boshqalar) uchun Tariflarda ko'rsatilgan bir martalik haq olishi mumkin.

12.3. **Gonorar.** Mutaxassis gonorari to'liq (100%) Mutaxassisning yoki advokatlik tuzilmasining o'z hisobiga to'lanadi. Ijrochi gonorardan ulush, komissiya yoki foiz olmaydi va gonorarni o'z hisobi orqali o'tkazmaydi.

12.4. **Maqom va cheklovlar.** Advokat amaldagi litsenziyaga ega ekanini kafolatlaydi va litsenziya to'xtatilgan yoki bekor qilinganda Ijrochini darhol xabardor qiladi. Yurist o'z diplomini tasdiqlaydi, o'zini «advokat» deb atamaydi va jinoyat ishlari bo'yicha himoyachi sifatida so'rov qabul qilmaydi. Jinoyat ishlari, ushlab turish va tergov bilan bog'liq so'rovlar faqat Advokatlarga yo'naltiriladi.

12.5. **Shaxsiy javobgarlik.** Mutaxassis Mijozga ko'rsatadigan yuridik xizmatlar, ularning sifati, muddati, narxi va natijasi uchun mustaqil va to'liq javobgar. Advokat «Advokatura to'g'risida»gi qonun va advokatlarning kasbiy odob qoidalariga, shu jumladan reklama va advokatlik siri bo'yicha talablarga rioya qiladi. Ijrochi Mutaxassisning harakati yoki harakatsizligi uchun javobgar emas.

12.6. Mutaxassis so'rov qabul qilinguniga qadar Mijoz bilan Platformadan tashqarida bog'lanishga, profilda yoki xabarlarda telefon, messenjer va boshqa kontaktlarni joylashtirishga urinmaydi. Bu talab buzilganda Ijrochi profilni cheklash yoki o'chirishga haqli.

12.7. Ijrochi Mutaxassis litsenziyasini (diplomini) ro'yxatdan o'tkazishda tekshiradi, profillarni moderatsiya qiladi va Mutaxassislarni Mijozlar baholari, javob tezligi va boshqa ob'ektiv mezonlar asosida tartiblaydi. Reyting algoritmi Ijrochining tijorat siri hisoblanadi.

12.8. **Bepul hamkorlik dasturi.** Ijrochi Advokatga belgilangan muddatga (qoida tariqasida 3 oy) Standart Tarifni bepul taqdim etishi mumkin. Advokat ixtiyoriy ravishda o'z ijtimoiy tarmoqlarida Platforma haqida huquqiy-ma'rifiy axborot joylashtirish, repost va qo'shma kontent tayyorlashda ishtirok etadi. Kelishilgan ishtirok bajarilmasa, Ijrochi dasturni to'xtatishi mumkin. Advokat birgalikda tayyorlangan kontentda o'z ismi va tasviridan Platformaning rasmiy kanallarida 3 yil davomida foydalanishga rozilik beradi.

13. «Advokatlar» bo'limi: Platforma, Mijoz va Mutaxassis munosabatlari

13.1. «Advokatlar» bo'limida Ijrochi Mijoz va Mutaxassis o'rtasida axborot vositachisi hisoblanadi va yuridik yordamni o'zi ko'rsatmaydi. Mijoz va Mutaxassis o'rtasidagi har qanday kelishuv faqat ular o'rtasida tuziladi; Ijrochi bunday shartnomaning tarafi, vakili, kafili yoki to'lov agenti emas.

13.2. Ijrochi Mijozdan so'rovni rasmiylashtirish, Mutaxassis bilan bog'lash va boshqa qo'shimcha xizmatlar uchun Tariflarda ko'rsatilgan bir martalik xizmat haqini olishi mumkin. Bu haq Ijrochining o'z xizmati uchun to'lov bo'lib, Mutaxassis gonorarining qismi hisoblanmaydi.

13.3. So'rov qabul qilinguniga qadar Mutaxassisga Mijozning anonimlashtirilgan ma'lumotlari ko'rsatiladi; so'rov qabul qilingach tomonlarning kontaktlari ochiladi. Mijoz so'rov yuborish orqali o'z ma'lumotlari tanlangan Mutaxassisga uzatilishiga rozilik beradi.

13.4. Ijrochi Mutaxassisning malakasi, muayyan ish natijasi, xizmat narxi yoki muddatlari uchun kafolat bermaydi. Mijoz Mutaxassisni mustaqil tanlaydi. Mijoz va Mutaxassis o'rtasidagi nizolar ular o'rtasida hal qilinadi; Ijrochi o'z ixtiyoriga ko'ra yozishmalarni ko'rib chiqishi, sharhlarni moderatsiya qilishi va odob qoidalari buzilishi haqida Advokatlar palatasini xabardor qilishi mumkin.

13.5. Sharhni faqat qabul qilingan so'rov egasi qoldiradi. Haqoratli, yolg'on yoki shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qiluvchi sharhlar o'chiriladi.

14. Fors-major

14.1. Tomonlar yengib bo'lmas kuch holatlari tufayli majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etiladi. Bunday holatlarga, jumladan: tabiiy ofatlar, yong'in, epidemiya va karantin; urush, ommaviy tartibsizliklar, terrorchilik; davlat organlarining qarorlari (shu jumladan saytlar, messenjerlar yoki xizmatlarni bloklash) va qonunchilikning o'zgarishi; xalqaro sanksiyalar va eksport cheklovlari; elektr ta'minoti, internet va aloqa tarmoqlaridagi uzilishlar; hosting, ma'lumotlar markazlari, AI provayderlari, to'lov tizimlari va Telegram faoliyatining to'xtatilishi yoki cheklanishi; kiberhujumlar (DDoS, ruxsatsiz kirish) hamda Ijrochi nazoratidan tashqaridagi boshqa holatlar kiradi.

14.2. Fors-major ta'sirida bo'lgan Tomon imkon qadar tez (Platforma, Telegram kanali yoki elektron pochta orqali) xabar beradi. Majburiyatlarni bajarish muddati fors-major davomiyligiga mutanosib uzayadi. To'langan obuna muddati uzilish davriga uzaytiriladi — bu fors-major uchun yagona va yetarli qoplama hisoblanadi.

14.3. Fors-major 60 kalendar kundan ortiq davom etsa, har bir Tomon Ofertani bir tomonlama bekor qilishi mumkin; Tomonlar bir-biridan zararni undirmaydi. Ko'rsatilmagan xizmat qismi uchun to'langan summa Foydalanuvchining yozma talabiga ko'ra qaytariladi.

15. Nizolarni hal qilish va xabarlar

15.1. Ofertaga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi qo'llaniladi. Nizolar avvalo muzokaralar orqali hal qilinadi. Talabnoma (pretenziya) yozma yoki elektron shaklda yuboriladi va 15 ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

15.2. Xizmat sifatiga oid talabnoma holat yuz bergan (yoki Foydalanuvchi u haqda bilishi lozim bo'lgan) kundan boshlab 30 kalendar kun ichida yuboriladi, qonunning imperativ normalarida boshqacha muddat belgilangan hollar bundan mustasno.

15.3. Nizo hal qilinmasa, u Ijrochi joylashgan joydagi vakolatli sudda ko'rib chiqiladi; iste'molchi bo'lgan Fuqaroning qonunda belgilangan sudlovni tanlash huquqi bundan mustasno.

15.4. Platformadagi elektron yozishmalar, tizim jurnallari (loglar), to'lov tizimi ma'lumotlari va Platformada yaratilgan elektron hujjatlar Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarning maqbul dalili hisoblanadi.

15.5. Yuridik ahamiyatga ega xabarlar: Foydalanuvchiga — ro'yxatdan o'tishda ko'rsatilgan telefon, elektron pochta yoki Telegram hisobi orqali; Ijrochiga — info@qonun.ai, Telegram @qonunai_admin, tel. +998 95 574 07 77.

16. Amal qilish muddati, o'zgartirish va yakuniy qoidalar

16.1. Oferta aksept qilingan paytdan kuchga kiradi va hisob o'chirilguniga qadar amal qiladi. Hisob 6 oy davomida to'lovsiz va faoliyatsiz bo'lsa, Ijrochi uni o'chirishga haqli.

16.2. Ijrochi Ofertani bir tomonlama o'zgartirishga haqli. Yangi tahrir qonun.ai/oferta sahifasida e'lon qilingan kundan kuchga kiradi (narxlar bo'yicha — 6.9-band). E'londan keyin Platformadan foydalanishni davom ettirish yangi tahrirga rozilik hisoblanadi. Rozi bo'lmagan Foydalanuvchi foydalanishni to'xtatishga haqli; to'langan davr shartlari uning oxirigacha o'zgarmaydi.

16.3. Foydalanuvchi hisobini o'chirish orqali shartnomani istalgan vaqtda bekor qilishi mumkin. Ijrochi Platforma faoliyatini to'liq to'xtatsa, kamida 30 kun oldin xabar beradi va foydalanilmagan to'langan

davr uchun summani qaytaradi.

16.4. Ofertaning biror bandi haqiqiy emas deb topilsa, qolgan bandlar kuchda qoladi; bunday band Tomonlar niyatiga eng yaqin qonuniy qoida bilan almashtiriladi.

16.5. Oferta bekor qilingandan keyin ham 3 (intellektual mulk), 5 (javobgarlikni cheklash), 15 (nizolar) bo'limlari va Maxfiylik siyosati o'z kuchini saqlaydi.

16.6. Har bir tahrir nashr sanasi bilan yuritiladi; muayyan davrga oid munosabatlarga o'sha davrda amalda bo'lgan tahrir qo'llaniladi. Ofertaning ajralmas qismlari: 1-ilova — Tariflar; 2-ilova — Restart qoidalari; Foydalanish shartlari; Maxfiylik siyosati.

17. Ijrochi rekvizitlari

Rekvizit	Ma'lumot
Nomi	«ADL TECH» MChJ
STIR	313328699
Yuridik manzil	Xorazm viloyati, Bog'ot tumani, «Oq Oltin» MFY, Istiqlol 1-tor ko'chasi, 57-uy
Hisob raqam	20208000607536508001
Bank	«Hamkorbank» ATB
MFO	00083
IKPU	10305008003000000 — dasturiy ta'minotdan foydalanish huquqini taqdim etish xizmatlari
Soliq rejimi	Aylanmadan olinadigan soliq (QQS to'lovchisi emas)
Aloqa	+998 95 574 07 77 · info@qonun.ai · Telegram @qonunai_admin · kanal @qonunairasmiy
Direktor	Bekmurodov Xolmurod Madyor o'g'li

Direktor _____ Bekmurodov Xolmurod Madyor o'g'li M.O'.

1-ilova. Tariflar

Narxlar so'mda, bir oy uchun. Limitlar bir hisob davri uchun. «—» — mavjud emas.

A. Fuqarolar uchun

	Bepul	Pro	Plus	Premium	Oila
Narx, so'm/oy	0	49 000	149 000	299 000	499 000
Hisoblar	1	1	1	2	3
Savollar	kuniga 2 (oyiga 30)	40	120	250	300
Hujjat tayyorlash	—	2	6	12	12
Hujjat auditi	—	1	3	6	6
Video tahlil, daqiqa	—	—	3	5	10
Jonli yurist (30 daq)	—	—	—	—	1

B. Advokatlar uchun

	Start	Standart	Pro	Byuro	Hay'at
Narx, so'm/oy	99 000	299 000	499 000	999 000	1 999 000
Hisoblar	1	1	2	5	10

	Start	Standart	Pro	Byuro	Hay'at
AI savollar	80	250	400	800	1 600
Hujjat tayyorlash	5	15	25	50	100
Hujjat auditi	2	5	10	20	40
Mijoz so'rovlari/oy	10	30	cheksiz	cheksiz	cheksiz
Kimlar uchun	Advokat, Yurist	Advokat, Yurist	Advokat	Advokat	Advokat

C. Kompaniyalar uchun

	Start	Biznes	Kompaniya	Korporativ	Enterprise
Narx, so'm/oy	299 000	499 000	999 000	1 999 000	4 999 000
Hisoblar	2	5	10	25	50
Savollar	250	400	700	1 400	3 500
Hujjat tayyorlash	15	25	40	80	200
Shartnoma auditi	5	10	20	40	100
Jonli yurist (30 daq)	—	—	1	2	5

D. Bir martalik xizmatlar

Xizmat	Narx
Hujjat tayyorlash (3 martagacha tahrir)	29 000
Hujjat auditi (10 A4 sahifagacha)	29 000; har qo'shimcha 10 sahifa +15 000
Video tahlil	har boshlangan daqiqa 10 000
Jonli yurist bilan maslahat (30 daqiqa)	49 000
Chegirmalar	3 oy −10%, 6 oy −15%, 12 oy −20%

Narxlar QQSsiz. Rasm va ovozli xabar = 1 savol. Kunlik limit — oylik limitning 10%. «Tez orada» deb belgilangan Tariflar va funksiyalar ishga tushirilguniga qadar sotilmaydi. Amaldagi narxlar qonun.ai/tariflar sahifasida.

2-ilova. Restart qoidalari

Qoida	Tavsif
Restart 50%	Narx — Tarif oylik narxining 50%; limitlar — 50% (pastga yaxlitlanadi, asl limit 0 dan katta bo'lsa kamida 1); joriy hisob davri oxirigacha amal qiladi; keyingi to'lov sanasi o'zgarmaydi.
Restart 100%	Narx — 100%; limitlar — 100%; sotib olingan kundan 1 oy amal qiladi; keyingi to'lov sanasi shu kundan 1 oy keyin. 12 oylik obunada yillik obuna tugash sanasi o'zgarmaydi.
Misol	Obuna 10-sentabrda boshlangan, limit 20-sentabrda tugagan: Restart 50% — 10-oktabrgacha; Restart 100% — 20-sentabrdan 20-oktabrgacha.
Narx asosi	Har doim chegirmasiz oylik narxdan hisoblanadi.
Qo'llanmaydi	Bepul Tarifda Restart mavjud emas. Hisoblar soni, so'rov toifalari va funksiyalar o'zgarmaydi.
Qaytarish	Faollashtirilgan Restart uchun to'lov qaytarilmaydi; hisob davri tugaganda qoldiq limitlar bekor bo'ladi.

Shuningdek qarang: Foydalanish shartlari · Maxfiylik siyosati.